

OILA HUQUQIDA ALIMENT MAJBURIYATLARI

Alimuratov Bexzod Bahodir o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti Ommaviy axborot vositalari huquqi bo'limi
magistranti

Annotatsiya

Bugungi kunda oila mavzusiga doir masalalar barchaning e'tibor markazida. Oila – jamiyatning eng kichik bo'g'ini bo'lgani holda ajrim, aliment, mol-mulk bilan bog'liq hamma nizolar oilaviy munosabatlar tarkibiga kiradi. Kundalik hayotimizda har kuni er-xotinlar o'rtasidagi ajrimlar, bolalar uchun undirilayotgan alimentlar, mol-mulkka undiruv qaratish kabi ko'plab muammoli vaziyatlarga duch kelayotganimiz ayanchli holat, albatta. Mazkur maqolada oila huquqida aliment majburiyatlarining ayni vaqtda mamlakatimizda amalda bo'lgan huquqiy mexanizmlari va ularni rivojlantirish masalalari borasida so'z yuritiladi. Bu ishda kuzatish metodidan foydalanildi. Mazkur maqolada ilgari surilgan takliflarni qonun ijodkorligi jarayonida, qolaversa, oila huquqi amaliyotida qo'llash mumkin.

Kalit so'zlar: oila huquqi, ajrim, mol-mulk huquqi, aliment majburiyatlari.

Avvalo, “*aliment*” tushunchasining huquqiy izohini tahlil qilish maqsadga muvofiq. Aliment – bu ota-onaning voyaga yetmagan, muomalaga layoqatsiz, yordamga muhtoj bolalariga, bolalarning ota-onasiga, er-xotinning, qarindoshlar va boshqa shaxslarning bir-biriga qonunga binoan beradigan ta'minoti. Zero, oilada ota-ona va bolalar o'rtasida yuzaga keladigan munosabatlar, tabiiyki, bir-biriga yordam ko'rsatish, bir-birini qo'llab-quvvatlash, hamjihatlik hamda ixtiyoriylikka asoslangan bo'lishi lozim. Aliment majburiyatlari oila a'zolari o'rtasida sodir bo'ladi.

“*Aliment*” so'zi lotincha “*alimentum*” so'zidan olingan bo'lib – “*oziq-ovqat*”, “*nafaqa*”, “*ta'minot*”, “*boqish uchun mablag'lar*” kabi ma'nolarni bildiradi. Bir so'z bilan aytganda, alimentlar bir shaxsning ikkinchi shaxsga majburan to'laydigan

moddiy mablagʻlari hisoblanadi. Oʻzbekiston Respublikasi Oila kodeksining 96-moddasiga koʻra, ota-ona voyaga yetmagan bolalariga toʻlar 18 yoshga toʻlgunga qadar aliment toʻlashlari shart²³. Yuqoridagi modda ota-onaning faqat voyaga yetmagan bolalarga nisbatangina taʼminot berish majburiyatlariga bagʻishlangan boʻlib, oʻz bolalarini moddiy jihatdan taʼminlash majburiyatini anglatadi. Aliment toʻlash majburiyati bolaning isteʼmoli uchun oziq-ovqat mahsulotlari, kiyim-kechak, turli xil oʻyinchoqlar, jismoniy tarbiya mashgʻulotlari bilan shugʻullanish chogʻida zarur boʻladigan buyumlar, oʻquv qurollari xarid qilish shaklida amalga oshiriladi. Voyaga yetgan mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj bolalariga aliment toʻlash ota-onaning majburiyatidir. Bunday aliment oyma-oy toʻlanadi.

Oila kodeksining 100-moddasida ota-onaning voyaga yetgan mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj bolalariga nisbatan tegishli majburiyatlari belgilab qoʻyilgan. Ota-ona voyaga yetgan mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj bolalariga taʼminot berishi shartdir. Voyaga yetgan mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj bolalariga taʼminot berish ota-onaning kelishuviga binoan amalga oshiriladi. Ota-ona oʻrtasida bunday kelishuvga erishilmagan taqdirda, nizo sud tartibida hal qilinadi.

Oila kodeksining 108-moddasiga muvofiq, mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj voyaga yetgan bolalar ota-onasidan, agar ular yoʻq boʻlsa, qarindoshlari va Oila kodeksida koʻrsatilgan boshqa shaxslardan oʻz taʼminoti uchun aliment talab qilish huquqiga ega. Bunday hollarda aliment miqdori sud tomonidan aliment toʻlash shart boʻlgan shaxsning moddiy va oilaviy ahvoli hisobga olinib, pul bilan toʻlanadigan qatʼiy summada belgilanishi mumkin.

Shuni taʼkidlash joizki, 2013-yil 30-apreldagi “*Oʻzbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga oʻzgartish va qoʻshimchalar kiritish toʻgʻrisida*”gi Qonuniga koʻra kiritilgan qoʻshimchalarga muvofiq, voyaga yetmagan bolani ota-onasidan olish va uni bolalar tarbiya muassasasiga joylashtirish toʻgʻrisidagi hal qiluv qarorini chiqarishda sud ota va onaning har biridan mazkur bola foydasiga Oila kodeksining 99-moddasida belgilangan miqdorlarda alimentlar undiradi. Bunda

²³ Oʻzbekiston Respublikasi Oila kodeksi.

undirilgan alimentlar mazkur bola nomiga ochilgan bank hisob varag‘ida jamlanadi va u voyaga yetganda to‘lanadi²⁴.

O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 109-moddasida shunday belgilangan: *“Voyaga yetgan, mehnatga layoqatli bolalar mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj o‘z ota-onasiga ta‘minot berishlari va ular to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilishlari shart. Ota-onasining davlat va nodavlat muassasalari qaramog‘ida ekanligi voyaga yetgan mehnatga layoqatli bolalarni ota-ona haqida g‘amxo‘rlik qilish va ularga moddiy yordam ko‘rsatish majburiyatidan ozod qilmaydi”*²⁵.

Ota-onaning mehnatga layoqatsizligi, qolaversa, oiladagi boshqa a‘zolarining mehnatga layoqatsizligi ularning nafaqa yoshiga yetganligi (ya‘ni ayollar 55 yoshga va erkaklar 60 yoshga yetganligi) yoxud I va II guruh nogironlari ekanligini anglatadi. Ota-onaning III guruh nogironi bo‘lganligi tibbiy mehnat ekspert komissiyasining tegishli xulosasida tavsiya etilgan ishni topa olmaganlari taqdirda, ularga o‘z bolalaridan ta‘minot olish huquqini beradi.

Oila kodeksining 112-moddasida esa *“Bolaning tug‘ilganlik to‘g‘risidagi guvohnomasida ota (ona) deb yozilgan shaxsdan aliment undirish to‘g‘risidagi nizo uzil-kesil hal etilgunga qadar sudya shu nizo bo‘yicha undan ushbu Kodeksda belgilangan miqdorda vaqtincha aliment undirish to‘g‘risida ajrim chiqarishi mumkin”*²⁶ deyilgan. Agar sud nikohdan ajratishda ishning ko‘rilishini keyinga qoldirib, er-xotinga yarashish uchun muddat berganda, *“Sudlar tomonidan nikohdan ajratishga oid ishlar bo‘yicha qonunchilikni qo‘llash amaliyoti to‘g‘risida”*gi O‘zbekiston Respublikasi Oliy sud Plenumining 2011-yil 20-iyul 6-sonli Qaroriga ko‘ra, Oila kodeksi 112-moddasiga muvofiq bolalar ta‘minoti uchun aliment undirish masalasini muhokama qilishga haqlidir²⁷.

Er va xotinning aliment yuzasidan huquq va majburiyatlari, ya‘ni bir-birlariga moddiy ta‘minot berish majburiyatlari mulkiy huquq va majburiyatlar turlaridandir. Bu masala bo‘yicha jinsiy holat hech qanday imtiyoz bermaydi.

²⁴ “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qonuni

²⁵ O‘zbekiston Respublikasi Oila Kodeksi.

²⁶ O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksi

²⁷ “Sudlar tomonidan nikohdan ajratishga oid ishlar bo‘yicha qonunchilikni qo‘llash amaliyoti to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Oliy sud Plenumining 2011-yil 20-iyul 6-sonli Qarori

Er-xotinlar va sobiq er-xotinlarning aliment majburiyatlari Oila kodeksi XV bobining 117-121-moddalari bilan tartibga solinadi.

Oila kodeksining 117-moddasida Er-xotinning bir-biriga ta'minot berish majburiyatlari ko'rsatib o'tilgan. Unga muvofiq *“Er-xotin bir-biriga moddiy yordam berishi shart. Bunday yordam berishdan bosh tortilgan taqdirda, yordamga muhtoj, mehnatga layoqatsiz er yoki xotin, shuningdek xotin homiladorlik davrida va o'rtada bola tug'ilgan kundan boshlab uch yil davomida, o'rtadagi nogiron bola o'n sakkiz yoshga to'lguncha yoki bolalikdan I guruh nogironi bo'lgan o'rtadagi bolaga qaragan yordamga muhtoj er (xotin) yordam berishga qodir bo'lgan xotin (er)dan sud tartibida ta'minot (aliment) olish huquqiga ega.”*

Erkak va ayol o'rtasidagi rasman qayd etilgan nikoh mavjud bo'lmagan taqdirda, bu holat (qonuniy nikoh munosabatida bo'lmaganlari sababli) ularning biriga boshqasidan tegishli moddiy yordam berishni talab qilish huquqini bermaydi. Bu qoida mutlaq tusga ega bo'lib, erkak va ayolning amalda qancha vaqt nikoh munosabatlarida bo'lganiga bog'liq bo'lmaydi.

Shuningdek, Oila kodeksining 118-moddasida Nikohdan ajralganidan keyin sobiq er (xotin)ning ta'minot olish huquqi belgilangan. Unga ko'ra:

Yetarli mablag'ga ega bo'lgan sobiq er (xotin)dan:

- sobiq xotin homiladorlik davrida va o'rtada bola tug'ilgan kundan boshlab uch yil davomida;
- o'rtadagi nogiron bola o'n sakkiz yoshga to'lguncha yoki bolalikdan I guruh nogironi bo'lgan bolaga qaragan yordamga muhtoj sobiq xotin (er);
- nikohdan ajralgunga qadar yoki nikohdan ajralgan paytdan boshlab bir yil davomida mehnatga layoqatsiz bo'lib qolgan yordamga muhtoj sobiq xotin (er);
- nikohdan ajralgan paytdan boshlab besh yil ichida pensiya yoshiga yetgan yordamga muhtoj xotin (er), agar er-xotin uzoq vaqt nikohda turishgan bo'lsa, sud tartibida aliment talab qilish huquqiga egadir.

Nikohdan ajralgandan keyin sobiq er yoki xotinga to'lanadigan aliment miqdori va uni to'lash tartibi sobiq er-xotin o'rtasidagi kelishuv bilan belgilanishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, er-xotin o‘rtasidagi huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi qonunlar ular o‘rtasidagi mulkiy munosabatlarning barqaror bo‘lishiga, oilani mustahkamlashga xizmat qiladi. Er-xotin o‘rtasida vujudga keladigan nizolarni to‘g‘ri hal qilish alohida ahamiyatga molikdir. Bu nizolar sudlar tomonidan adolatli asosda hal qilinishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksi. T., 1998.
2. “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qonuni.
3. “Sudlar tomonidan nikohdan ajratishga oid ishlar bo‘yicha qonunchilikni qo‘llash amaliyoti to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Oliy sud Plenumining 2011-yil 20-iyul 6-sonli Qarori.
4. Inomjonova G.S. Ota-ona va bolalar huquqlarini himoya qilish muammolari. – T.: Adolat, 2006. –B.134.
5. Otaxo‘jaev F.M. Nikoh va uning huquqiy tartibga solinishi. – T.: O‘zbekiston, 1995.

